

ESKROU HISOBVARAG‘I SHARTNOMASI (Ommaviy oferta)

1. Umumiy qoidalar

- 1.1 Eskrou Hisobvaraқ shartnomasi ofertasini qabul qilish (aksept) - Deponent va Benefitsiarning «KDB Bank Uzbekiston» AJ (keyingi o‘rinlarda - Bank) da eskrou hisobvarag‘ini ochish bo‘yicha taklif-shartlarni qabul qilishi bo‘lib, mazkur ommaviy oferta Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan: www.kdb.uz.
- 1.2 O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasi va 369-moddasi 2-qismiga muvofiq, Shartnoma Deponent va Benefitsiar Eskrou Hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi Ariza bilan Bankka murojaat qilgan paytdan boshlab tuzilgan va kuchga kirgan hisoblanadi.

Ushbu ommaviy oferta matnini diqqat bilan o‘qing va Bank tariflarini o‘rganing. Agar ofertaning biron-bir bandi bilan rozi bo‘lmasangiz, xizmatlardan foydalanishni rad etishga haqqingiz bor.

2. Ta‘riflar

Bank - eskrou-agent - «KDB Bank O‘zbekiston» AJ va uning barcha alohida bo‘limlari.

Bank kuni - Bankning muntazam bank faoliyatini amalga oshirish uchun ochiq bo‘lgan har bir kun.

Benefitsiar - eskrou hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi Arizada ko‘rsatilgan, mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida ish yurituvchi, Bank bilan Eskrou Hisobvarag‘i shartnomasini tuzgan yoki tuzmoqchi bo‘lgan, hisobgi pul mablag‘larini oluvchi shaxs.

Benefitsiarga quyidagilar kiradi:

1. O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs, yoxud uning vakili (ishonchli vakil), Qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida ish yurituvchi;
2. O‘zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxs; xorijiy davlat qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, yuridik shaxs hisoblanmaydigan xorijiy tashkilot; yuridik shaxs huquqlariga ega davlat organi; O‘zbekiston Respublikasida joylashgan diplomatik yoki boshqa rasmiy vakolatxona, xorijiy davlatning konsullik muassasasi; xalqaro tashkilot; yakka tartibdagi tadbirkor; notarial idorada faoliyat yurituvchi notarius.

Deponent - Eskrou Hisobvarag‘i egasi - (a) jismoniy shaxs (yoki uning vakili (ishonchli vakil), Qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida ish yurituvchi) yoki (b) quyidagi shakllardan biriga ega tashkilot yoki shaxs: (i) tadbirkorlik faoliyati sub‘ekti bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezident-yuridik shaxs; (ii) norezident-yuridik shaxs (ochiq elektron savdolarida — tovar-xom ashyo birjalarida ishtirokchi, tashkil etilgan savdolarida aksiyalarni sotuvchi (xarid qiluvchi) xorijiy investor), O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi norezidentning doimiy muassasasi, norezident vakili (diplomatik va boshqa rasmiy vakolatxona, immunitet va diplomatik imtiyozlardan foydalanadigan xalqaro tashkilot va uning filiali, hamda O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xorijiy tashkilot vakili); (iii) yakka tartibdagi tadbirkor; (iv) O‘zbekiston Respublikasi rezident-yuridik shaxsining vakili va/yoki filiali; (v) O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida Hisobvaraқ ochish huquqiga ega bo‘lgan korxon va xo‘jaliklarning boshqa shakllari.

Deponirlangan summa - Hisobvaraқda hisobga olingan pul mablag‘lari bo‘lib, uning miqdori eskrou hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi Arizada va/yoki shartlarni o‘zgartirish to‘g‘risidagi Arizada belgilanadi.

Qonunchilik - ushbu Shartlarga nisbatan qo‘llaniladigan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, jumladan qonunlar, qonun osti hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa davlat organlarining normativ hujjatlari.

Eskrou Hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi Ariza - ushbu Shartnomaga 1-ilovada keltirilgan shakldagi, Eskrou Hisobvarag‘ini ochish maqsadida rasmiylashtirilgan va Bankka taqdim etilgan ariza.

Shartlarni o‘zgartirish to‘g‘risidagi Ariza - ushbu Shartnomaga 2-ilovada keltirilgan shakldagi, Deponent tomonidan Eskrou Hisobvaraқ shartnomasi shartlarini o‘zgartirish maqsadida rasmiylashtirilgan va Bankka taqdim etilgan ariza.

Tegishli tekshiruv - Deponent shaxsini identifikatsiya va verifikatsiya qilish, shuningdek moliyaviy operatsiyalarning maqsadi va xarakterini o‘rganish, jumladan pul mablag‘lari manbai to‘g‘risidagi

ma'lumotlarni olish va qayd etish - Bankka taqdim etilgan hujjatlar (ma'lumotlar) bilan muvofiqligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon. Bank Tegishli tekshiruv tartibini Qonunchilik va Bankning ichki hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiradi, jumladan: tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha ichki nazorat qoidalari; hamda BMT Xavfsizlik Kengashi («UNSC»), Yevropa Ittifoqi («EU»), AQSH Moliya vazirligi Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi («OFAC»), Moliyaviy xizmatlar komissiyasi («FSC»), Moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash agentligi («FinCEN») va AQSH Savdo vazirligi Sanoat va xavfsizlik byurosi («BIS») tomonidan qabul qilingan sanksiya dasturlari hamda O'zbekiston Respublikasining Maxsus Vakolatli Davlat Organi normativ ko'rsatmalari asosida.

Operatsion kun - Bank kunining vaqt bilan cheklangan qismi bo'lib, ushbu davr ichida bank operatsiyalari, shuningdek pul-hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirilish va operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya ma'lumotlarini aks ettirish amalga oshiriladi.

Eskrou Hisobvarag'i - Deponentdan olingan pul mablag'larini hisobga olish va bloklash uchun mo'ljallangan maxsus Hisobvaraqa bo'lib, eskrou hisobvarag'i shartnomasi tomonidan nazarda tutilgan muayyan asoslar yuzaga kelganda ushbu mablag'larni Benefitsiarga o'tkazish maqsadida xizmat qiladi.

Tomonlar - Bank, Deponent va Benefitsiar, shu jumladan birgalikda tilga olinganda.

Bank Tariflari - Bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan va Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan bank xizmatlari va mahsulotlariga oid tariflar: www.kdb.uz

3. Shartnoma mavzusi

- 3.1 Hisobvaraqa ochish to'g'risidagi Ariza asosida Bank O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida Eskrou Hisobvarag'ini (keyingi o'rinlarda - hisobvaraqa) Deponentdan olingan pul mablag'larini (keyingi o'rinlarda - Deponentlangan summa) hisobga olish va bloklash hamda ushbu Shartnomada nazarda tutilgan asoslar yuzaga kelganda Shartnomada ko'zda tutilgan operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida ochishga majburdir.
- 3.2 Hisobvaraqdagi pul mablag'lariga bo'lgan huquqlar Benefitsiarga pul mablag'larini o'tkazish asosi yuzaga kelgan sanaga qadar Deponentga tegishlidir.
- 3.3 Deponent va Benefitsiar Hisobvaraqdagi pul mablag'larini tasarruf eta olmaydi, ushbu Shartnomada bevosita nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.
- 3.4 Deponent va Benefitsiarning ushbu Shartnoma munosabatlarida Tomonlar sifatida ishtirok etishining asosi ular tomonidan tuzilgan va notarial tasdiqlangan mulkni sotish-sotib olish shartnomasi bo'lib, uning predmeti mulk huquqining haq evaziga o'tishi va ushbu Hisobvaraqa orqali hisob-kitob qilinishi hisoblanadi.

4. Hisobvaraqni ochish va yuritish tartibi

- 4.1 Bank Mijozga Hisobvaraqni barcha zarur hujjatlar taqdim etilgandan va Bankning global Internet tarmog'ida joylashtirilgan rasmiy veb-sayti: www.kdb.uz da mazkur ofertaning aksept(qabul qilish) qilinganidan so'ng ochadi.
- 4.2 Mazkur ofertaning aksepti Bank tomonidan Deponent va Benefitsiardan eskrou hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi Ariza (keyingi o'rinlarda ushbu bandda - Ariza) qabul qilinishi hisoblanadi. Qog'oz shaklida rasmiylashtirilgan Ariza 3 (uch) nusxada tuziladi. Har bir Arizaning bir nusxasi Bankda qoladi, ikkinchi nusxasi Deponentga topshiriladi, uchinchi nusxasi Benefitsiarga topshiriladi.
- 4.3 Hisobvaraqa ochish uchun zarur hujjatlar ro'yxati Bank tomonidan Qonunchilik talablari va Bankning normativ hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Bank Qonunchilik yoki Bankning ichki hujjatlari o'zgarganda hisobvaraqa ochish va yuritish uchun zarur hujjatlar ro'yxatiga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Hisobvaraqa ochish uchun zarur hujjatlar ro'yxati Bankning global Internet tarmog'ida joylashtirilgan rasmiy veb-sayti: www.kdb.uz da, shuningdek Bank filiallari axborot stendlarida joylashtiriladi.
- 4.4 Hisobvaraqa Deponent va Benefitsiar bo'yicha tegishli tekshiruv tartibi muvaffaqiyatli yakunlangandan va eskrou hisobvaraqa shartnomasini ochish hamda tuzish uchun barcha talab qilingan hujjatlarni taqdim etilgan sanasidan keyingi ish kunidan kechiktirmay ochiladi.

- 4.5 Shartnomani tuzish va Hisobvaraqq ochish uchun Deponent va Benefitsiar tomonidan taqdim etiladigan barcha hujjatlar Bankka taqdim etilgan sana holatiga amal qiluvchi(yaroqli) bo'lishi lozim.
- 4.6 Bank taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning haqiqiylikini tekshirmaydi va taqdim etilgan haqiqiy bo'lmagan/amal qilmaydigan hujjatlar asosida Hisobvaraqq bo'yicha operatsiya amalga oshirilgan taqdirda javobgar bo'lmaydi.
- 4.7 Bank quyidagi holatlardan birortasi mavjud bo'lsa, Shartnomani tuzishdan (shartlarni o'zgartirishdan) va Hisobvaraqq ochishni rad etish huquqiga ega:
- Deponent va (yoki) Benefitsiar tomonidan ushbu Shartnoma va (yoki) Qonunchilikda Hisobvaraqq ochish uchun nazarda tutilgan hujjatlarning to'liq to'plamini taqdim etmaslik;
 - Bankda Deponentning bank va boshqa Hisobvaraqlaridagi operatsiyalar to'xtatilganligi haqida ma'lumot mavjud bo'lishi, jumladan boshqa banklar tomonidan ochilgan hisobvaraqlarda, agar operatsiyalarni to'xtatish Qonunchilikka muvofiq yangi bank hisobvaraqlari ochishning mumkin emasligini keltirib chiqarsa;
 - Bank uchun Deponent va Benefitsiar tomonidan Ariza ochish va/yoki Deponentning shartlarni o'zgartirish Arizasida bayon etilgan Shartnoma shartlari maqbul bo'lmasa;
 - Qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.
- 4.8 Hisobvaraqqdagi pul mablag'lari qoldig'iga foizlar hisoblash Bank Tariflarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 4.9 Uchinchi shaxslar oldidagi Deponent majburiyatlari bo'yicha hisobvaraqqdagi operatsiyalarni to'xtatib qo'yish, Hisobvaraqqdagi pul mablag'larini hibsga olish yoki hisobvaraqqdan chiqarishga yo'l qo'yilmaydi. Qonunchilikda bevosita nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Vakolatli organlarning hisobvaraqqdagi pul mablag'larini hibsga olish yoki hisobdan chiqarish to'g'risidagi talablari kelib tushganda Bank bu haqda Deponent va Benefitsiarga darhol xabar beradi.
- 4.10 Yozma talab/so'rov asosida Bank Deponentga va Benefitsiarga Bankning ichki hujjatlari va ushbu Shartnoma tartibiga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni, jumladan hisobvaraqq bo'yicha ko'chirmani quyidagi usullardan biri orqali taqdim etadi:
- iDAB Internet-Banking yoki KDBUz Mobile ilovasi orqali ma'lumotni joylashtirish/yuborish;
 - ma'lumotni Deponent yoki Benefitsiarga tilxat ostida topshirish.
- 4.11 Deponent Hisobvaraqqidagi pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi «Banklardagi omonatlari himoya qilish kafolatlari to'g'risida»gi № ZRU-1031-sonli Qonuniga (keyingi o'rinlarda - Qonun) muvofiq kafolatlash ob'ekti hisoblanadi. Kafolat hodisasi yuz berganda, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan kafolatlanadigan umumiy kompensatsiya summasi kafolatlash ob'ektlarining miqdori, soni va valyutasidan qat'i nazar 200 000 000,00 (ikki yuz million) so'mdan oshmasligi mumkin.

5. Hisobvaraqq bo'yicha operatsiyalar

- 5.1 Hisobvaraqq bo'yicha quyidagi operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin:
- Bank tomonidan Deponentdan naqd pulsiz shaklda qabul qilingan yoki Bank kassasiga naqd shaklda kiritilgan pul mablag'larini hisobga olish. Naqd pulsiz to'ldirishda, hisobvaraqqqa mablag'lar faqat Deponentga tegishli bo'lgan bank Hisobvaraqlaridan kelib tushgan taqdirda amalga oshiriladi. Mazkur bandeda ko'rsatilgan holatda Bank kelib tushgan pul mablag'larini jo'natuvchiga mustaqil ravishda qaytaradi;
 - ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar yuzaga kelganda Depozit qilingan summani Benefitsiarning Bankidagi Benefitsiar Hisobvaraqqiga o'tkazish;
 - Shartnoma bekor bo'lganda Depozit qilingan summani Deponentga qaytarish;
 - shartlarni o'zgartirish to'g'risidagi Ariza asosida Depozit qilingan summa kamaytirilgan taqdirda ortiqcha hisobga olingan pul mablag'larini Deponentga o'tkazish;
 - texnik xato natijasida yoki bahsli operatsiyalar hamda nostandart holatlarni tartibga solish jarayonida Bank tomonidan Hisobvaraqqqa xato tarzda o'tkazilgan pul mablag'larini hisobdan chiqarish.
- 5.2 Deponent ushbu Shartnomaning 8.2-bandi 8.2.1-kichik bandeda ko'rsatilgan muddatda Depozit qilingan summani Hisobvaraqqqa o'tkazadi.

- 5.3 Hisobvaraqa pul mablag'larini hisobga olish Qonunchilik va Bankning ichki hujjatlarida belgilangan muddat va tartibda amalga oshiriladi.
- 5.4 Hisobvaraqa bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish, jumladan Hisobvaraqa Deponentlangan summadan ortiq pul mablag'larini kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu bandda ko'rsatilgan holatda Bank kelib tushgan pul mablag'larini jo'natuvchiga mustaqil ravishda qaytaradi.

6. Deponirlangan summani Benefitsiarga o'tkazish asoslari

- 6.1 Benefitsiarga Deponirlangan summani o'tkazish uchun asos - Deponent va Benefitsiar o'rtasidagi oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlash fakti va «Notarius» Avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali Bankka kelib tushgan tegishli mablag'larni o'tkazish so'rovini olish hisoblanadi. Deponirlangan summani Benefitsiarning Bankidagi Benefitsiar Hisobvarag'iga o'tkazish - so'rov olingan Bankning o'sha Operatsion kuni ichida Bank tomonidan rasmiylashtiriladigan hisob-kitob hujjati asosida banklararo o'tkazma orqali amalga oshiriladi. Agar so'rov Operatsion kun tugagandan keyin olinsa, o'tkazish keyingi Operatsion kunda amalga oshiriladi.
- 6.2 Shu bilan Deponent Bankka ushbu Shartnomaning 6.1-bandini bajarish maqsadida Hisobvaraqdan Benefitsiar foydasiga Deponirlangan summani hisobdan chiqarish huquqini (oldindan berilgan aksept) beradi.
- 6.3 Bank pul mablag'lari hisobdan chiqarilgandan so'ng Benefitsiarning Bankidagi Benefitsiar Hisobvarag'iga pul mablag'larini kirim qilish muddatlari uchun javobgar bo'lmaydi.
- 6.4 Bank Ariza ochish va/yoki shartlarni o'zgartirish to'g'risidagi Arizada Benefitsiar Hisobvaraqining noto'g'ri rekvizitlari ko'rsatilgan taqdirda pul mablag'larini o'z vaqtida o'tkazilmasligi yoki qaytarilishi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 6.5 Bankning Benefitsiarga pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha majburiyati Benefitsiar foydasiga pul mablag'larini hisobdan chiqarilgan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

7. Deponirlangan summani Deponentga qaytarish asoslari

- 7.1 Deponirlangan summani Deponentga qaytarish asosi — muddatidan oldin bekor qilinishi sababli ushbu Shartnoma amalining to'xtashi hisoblanadi. Shartnoma bekor qilinganda Deponent Bankka ushbu Shartnomaga № 3-ilova shaklida rasmiylashtirilgan va Deponent hamda Benefitsiar tomonidan imzolangan Eskrou Hisobvarag'i Shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi yozma Arizani taqdim etadi.
- 7.2 Deponirlangan summani Deponentga qaytarish Eskrou Hisobvarag'i Shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi Ariza Bankka taqdim etilgan sanadan keyingi 3 (uch) Bank kunidan kechiktirmay (Deponent so'rovi bo'yicha) quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:
- Deponent Arizada ko'rsatgan Hisobvaraqa rekvizitlari bo'yicha Bank tomonidan rasmiylashtiriladigan hisob-kitob hujjatlari asosida banklararo o'tkazma orqali;
 - qaytarish sanasida amal qiluvchi Bank Tariflariga muvofiq Bank komissiya haqini hisobga olingan holda, Bank kassasidan Deponentlangan summani naqd shaklda berish orqali.
- 7.3 Shu bilan Deponent Bankka ushbu Shartnomaning 7.2-bandini bajarish maqsadida Deponirlangan summani hisobdan chiqarish huquqini (oldindan berilgan aksept) beradi.
- 7.4 Eskrou Hisobvarag'ini ochish va yuritish uchun Bankning komissiya mukofoti Shartnoma bekor qilingan va Deponirlangan summa Deponentga qaytarilgan taqdirda qaytarilmaydi.

8. Tomonlarning majburiyatlari va huquqlari

8.1 Bank majburiyatlari:

- 8.1.1 Deponentga mazkur Shartnomaning 4.3-bandida nazarda tutilgan muddatda Hisobvaraqa ochish;
- 8.1.2 Deponentga bank xizmatlari bo'yicha zarur ma'lumotlar va maslahat xizmatlarini taqdim etish, shuningdek amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi zarur hujjatlarni berish;
- 8.1.3 Deponirlangan summani Hisobvaraqa tushgan paytdan boshlab, uni Benefitsiarga o'tkazish yoki Deponentga qaytarish asoslari yuzaga kelguniga qadar mazkur Shartnomaga muvofiq hisobga olish va bloklashni ta'minlash;
- 8.1.4 Hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalarni mazkur Shartnoma va Qonunchilikda belgilangan muddatlarda amalga oshirish;

- 8.1.5 Mazkur Shartnomada nazarda tutilgan asoslar yuzaga kelganda, Deponirlangan summa miqdorida pul mablag‘larini Benefitsiarga yoki Deponentga mazkur Shartnomada belgilangan tartibda o‘tkazish;
- 8.1.6 Bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarning saqlanishini ta‘minlash. Bunday ma‘lumotlar uchinchi shaxslarga faqat Qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan hollarda va tartibda taqdim etilishi mumkin;
- 8.1.7 Hisobvaraqdagi pul mablag‘larining saqlanishini kafolatlash. Hisobvaraqdagi mablag‘larga ta‘qiq(hibs) qo‘yish, shuningdek Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish faqat Qonunchilik va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi;
- 8.1.8 SMS-xabarnoma xizmati (bundan buyon - “SMS-xabarnoma” xizmati) orqali Deponentga Hisobvaraq bo‘yicha asosiy operatsiyalar, jumladan mablag‘ning hisobvaraqqa tushishi, hisobvaraqdan mablag‘ning yechilishi (o‘tkazilishi) va hisobvaraq qoldig‘i haqida xabarnomalar yuborish.
- 8.2 Deponent majburiyatlari:**
- 8.2.1 Tegishli ariza taqdim etilgan sanadan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Eskrou Hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi Arizada va/yoki shartlarni o‘zgartirish to‘g‘risidagi Arizada belgilangan miqdorda Deponirlangan summani ta‘minlash;
- 8.2.2 Bankka ushbu Shartnoma bo‘yicha Bank majburiyatlarini bajarish, Deponent va uning vakillarini identifikatsiya qilish, Qonunchilikda nazarda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish, jumladan Tegishli tekshiruvni o‘tkazish maqsadida zarur hujjatlar va ma‘lumotlarni taqdim etish. Bunday hujjatlar va ma‘lumotlar tushunarli, to‘liq va ishonchli bo‘lishi lozim;
- 8.2.3 Bank talabiga ko‘ra Deponent Bankka Qonunchilikda nazarda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur ishonchli hujjatlarni (ma‘lumotlarni), jumladan Tegishli tekshiruvni o‘tkazish uchun hujjatlar va ma‘lumotlarni, shuningdek hisobvaraq bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning Qonunchilik normalari va Ichki nazorat qoidalariga muvofiqligini tekshirish uchun zarur boshqa hujjatlarni (ma‘lumotlarni) darhol taqdim etishga majburdir. Taqdim etilgan hujjatlar (ma‘lumotlar), jumladan Deponentning Komplains-Anketa (KYC shakli)sida ishonchlilik shubhasi tug‘ilganda Bank qayta Tegishli tekshiruv o‘tkazadi;
- 8.2.4 Deponent Bank Tariflari bo‘yicha komissiya mukofotini to‘lashga majburdir;
- 8.2.5 Tegishli o‘zgarishlar yuzaga kelgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kunidan kechiktirmay Bankka aloqa ma‘lumotlari, hisob-kitob rekvizitlari, yashash va (yoki) ro‘yxatga olish manzili, Deponentni identifikatsiya qilish, bildirishnomalar/boshqa ma‘lumotlar yuborish (zarur bo‘lsa), hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur boshqa ma‘lumotlar o‘zgarganligi haqida xabar berish;
- 8.2.6 Hisobvaraq ochilgan kundan kechiktirmay Bank Tariflariga muvofiq hisobvaraqni ochish va yuritish xizmatlari uchun mukofotni Bankka to‘liq to‘lash;
- 8.2.7 AQSh soliq rezidentligi belgilari mavjudligi (paydo bo‘lishi) haqida Bankni xabardor etish;
- 8.2.8 Deponent «SMS-xabardorlik» xizmatini ulash to‘g‘risidagi arizada ko‘rsatilgan SIM-kartani (telefon raqamini) boshqa shaxslar uchun kirish imkoni bo‘lmagan joyda saqlashga va hisobvaraq ustidan tasarruf etish ishonchnomasiga ega shaxslar jumladan, boshqa shaxslarga bermaslikka majburdir. Deponent SIM-kartani yo‘qotgan taqdirda, Deponent Bankka murojaat etib «SMS-xabardorlik» xizmatini bloklash yoki undan voz kechish to‘g‘risida yozma topshiriq taqdim etishi lozim.
- 8.2.9 Mobil telefon raqami o‘zgarganda, shuningdek mobil telefon (SIM-karta) yo‘qolgan yoki uchinchi shaxslarga topshirilgan taqdirda yoxud SIM-kartadan ruxsatsiz foydalanish shubhasi tug‘ilganda Bankka yozma ariza bilan yoki Bank qo‘ng‘iroq markaziga murojaat qilib darhol xabar berish.

8.3 **Benefitsiar majburiyatlari:**

- 8.3.1 Bankka Benefitsiar va uning vakillarini identifikatsiya qilish, Qonunchilikda nazarda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish, jumladan Tegishli tekshiruvni o'tkazish maqsadida zarur hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish. Bunday hujjatlar va ma'lumotlar tushunarli, to'liq va ishonchli bo'lishi lozim;
- 8.3.2 Tegishli o'zgarishlar yuzaga kelgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kunidan kechiktirmay Bankka aloqa ma'lumotlari, hisob-kitob rekvizitlari, yashash va (yoki) ro'yxatga olish manzili, Benefitsiarni identifikatsiya qilish, bildirishnomalar/boshqa ma'lumotlar yuborish (zarur bo'lsa), Hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur boshqa ma'lumotlar o'zgarganligi haqida xabar berish;
- 8.3.3 AQSh soliq rezidentligi belgilari mavjudligi (paydo bo'lishi) haqida Bankni xabardor etish.

8.4 **Bank huquqlari:**

- 8.4.1 Deponent va Benefitsiarda Qonunchilik va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rash;
- 8.4.2 Deponent va (yoki) Benefitsiar tomonidan Shartnomani tuzish va Hisobvaraqa ochish uchun zarur hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda Hisobvaraqa ochishni rad etish;
- 8.4.3 Deponent tomonidan ushbu Shartnomaning 8.2-bandi 8.2.6-kichik bandida nazarda tutilganlar jumladan, Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda Deponentning yozma roziligisiz bir tomonlama Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortish, Deponirlangan summani Deponentga qaytarish va Hisobvaraqa yopish;
- 8.4.4 Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha Ichki nazorat qoidalariga muvofiq, Bank Deponent tomonidan amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda amalga oshirilgan operatsiyalar qonuniyligiga doir yozma tushuntirish taqdim etilguniga qadar bir tomonlama Shartnomani bekor qilish, xizmatlar ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib qo'yish yoki Deponentga xizmat ko'rsatishni rad etish huquqiga ega. Bank ushbu bandga muvofiq Hisobvaraqa to'xtatib qo'yish yoki yopish natijasida Deponent ko'rgan har qanday zararlar uchun javobgar bo'lmaydi;
- 8.4.5 Hisobvaraqa bo'yicha o'tkazma, Hisobvaraqa bo'yicha tasdiq, Hisobvaraqa ko'chirmasi va/yoki boshqa ma'lumotlarda xato yozuv aniqlangan taqdirda Deponentning oldindan roziligisiz Hisobvaraqa kreditlash yoki debetlash yo'li bilan tuzatish kiritish. Agar bunday noto'g'ri hisob-kitoblar Bank tomonidan qo'pol e'tiborsizlik natijasi bo'lmasa, Bank bunday tuzatishlar oqibatida yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar bo'lmaydi;
- 8.4.6 Bank hisobvaraqa ochishdan oldin va/yoki hisobvaraqa pul mablag'lari kiritilishidan oldin Deponentdan pul mablag'larining kelib chiqish manbasini tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilishga, shuningdek bunday tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxatini belgilash va o'zgartirishga haqli. Mazkur talablar amaldagi qonunchilik, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, sanksiyalar komplayensi talablari hamda Bankning ichki tartib-taomillarini inobatga olgan holda Bank tomonidan bir tomonlama tartibda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.
Hujjatlar taqdim etilmagan, to'liq bo'lmagan ma'lumotlar taqdim etilgan yoki pul mablag'larining kelib chiqish manbasini hujjatlar bilan tasdiqlashning imkoni bo'lmagan taqdirda, Bank hisobvaraqa ochishni rad etishga, hisobvaraqa pul mablag'larini kiritishni rad etishga, yoki operatsiyalarni amalga oshirishni rad etishga haqli.
- 8.4.7 Ushbu Shartnomani bajarish maqsadida Deponent/Deponent vakili va Benefitsiar/Benefitsiar vakili haqida taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni, jumladan «Notarius» Avtomatlashtirilgan axborot tizimi yordamida foydalanish va qayta ishlash;
- 8.4.8 "SMS-xabarnoma" xizmati orqali Bank Deponentga quyidagi xabarnomalarni yuborishga haqli, biroq majbur emas:

- Deponent nomiga yangi hujjatlar kelib tushganligi;
- umumiy axborot xabarlari (yangi xizmatlar va h.k.);
- shaxsiy axborot xabarlari.

8.4.9 Bank mazkur Shartnoma shartlariga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish, ularni yangi tahrirda tasdiqlash, shuningdek Bank Tariflarini o'zgartirish huquqiga ega, bunda Tomonlar bunday o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 kalendar kun oldin mazkur Shartnomaning 11.5-bandida nazarda tutilgan tartibda yozma ravishda oldindan xabardor qilinishi shart.

8.5 Deponent quyidagi huquqlarga ega:

- 8.5.1 Hisobvaraqa pul mablag'larini bank o'tkazmasi orqali, naqd shaklda yoki Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda kiritish;
- 8.5.2 Bankdan Hisobvaraqa bo'yicha ma'lumotlarni (shu jumladan hisobvaraqa bo'yicha ko'chirmalarni) bepul asosda, so'rov bo'yicha, ushbu Shartnomada belgilangan muddat va tartibda olish;
- 8.5.3 Ushbu Shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan shakl bo'yicha shartlarni o'zgartirish to'g'risidagi Arizani taqdim etish orqali ushbu Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritish;
- 8.5.4 Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda hisobvaraqa joylashtirilgan pul mablag'larini qaytarishni (o'tkazishni) Bankdan talab qilish;
- 8.5.5 Hisobvaraqa bo'yicha amalga oshirilgan har bir operatsiya haqida xabarnomalarni olish:
- "SMS-xabarnoma" xizmatidan foydalanish orqali (Deponent tomonidan "SMS-xabarnoma" xizmati ulangan va Eskrou Hisobvarag'ini ochish uchun Arizada va/yoki shartlarni o'zgartirish to'g'risidagi Arizada Deponentning mobil telefon raqami taqdim etilgan taqdirda);
 - Deponentning so'rovi bo'yicha hisobvaraqa bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ko'chirma olish orqali.

8.6 Benefisiar quyidagi huquqlarga ega:

- 8.6.1 Bankdan Hisobvaraqa bo'yicha ma'lumotlarni (shu jumladan Hisobvaraqa bo'yicha ko'chirmalarni) bepul asosda, so'rov bo'yicha, ushbu Shartnomada belgilangan muddat va tartibda olish;
- 8.6.2 Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda Hisobvaraqa joylashtirilgan pul mablag'larini o'tkazishni Bankdan talab qilish.

9. Tomonlarning javobgarligi

- 9.1 Bank Hisobvaraqdan pul mablag'larini o'tkazish muddatlarini buzganligi uchun Qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.
- 9.2 Bank Deponent va Benefisiar oldida javobgar emas:
- Shartnoma tuzish va Hisobvaraqa ochish maqsadida Deponent va Benefisiar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligi, shuningdek Hisobvaraqa oid har qanday ariza va boshqa hujjatlarni to'ldirishda Deponent va Benefisiar tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligi uchun;
 - Amaldagi Qonunchilik va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda Hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni rad etganligi uchun;
 - Ushbu Shartnoma bo'yicha Bank zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun, shuningdek Deponent va/yoki Benefisiar o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda yuzaga kelgan zararlari uchun;
 - Deponent va (yoki) Benefisiar va (yoki) uchinchi shaxslar o'rtasida tuzilgan majburiyatlar va shartnomalar bo'yicha, shuningdek Deponent va (yoki) Benefisiar va (yoki) uchinchi shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) natijasida yetkazilgan zarar uchun;
- 9.3 Boshqa hollarda Tomonlarning javobgarligi Qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda yuzaga keladi.
- 9.4 Tomonlar bir-biriga faqat o'z harakatlari (harakatsizligi) natijasida yuzaga kelgan haqiqiy zararlarni qoplaydi.

- 9.5 Deponent mobil telefon orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun, ularni boshqa shaxslar Deponentning roziligi bilan yoki rozilgisiz amalga oshirgan bo‘lishidan qat’i nazar, Bank Deponentdan mobil telefon raqami o‘zgartirilishi yoki yo‘qotilganligi haqida, shu jumladan uchinchi shaxslar tomonidan SIM-kartadan ruxsatsiz foydalanish gumoni haqida ma’lumot olguniga qadar javobgar bo‘ladi.
- 9.6 Bank Deponent tomonidan SMS-xabarnomalarni olmaslik uchun Bankga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra javobgar emas, shu jumladan aloqa operatorlaridagi texnik nosozliklar, telefon raqami bloklanishi yoki o‘zgarishi, xabarlarni yetkazib berishdagi muammolar va boshqa holatlar natijasida.
- 9.7 Agar Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari va tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari tufayli imkonsiz bo‘lsa, Tomonlar majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi. Bunday holatlarga: harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar va rasmiy ravishda shunday deb tan olingan boshqa hodisalar; banklararo elektron to‘lov tizimining ehtimoliy nosozligi; davlat hokimiyati va ijro etuvchi organlarining ushbu Shartnoma shartlarini bajarishni imkonsiz qiluvchi hujjatlari kiradi.
- 9.8 Bank korrespondentlar, subagentlar va boshqa uchinchi shaxslarning kamchiliklari va xatolari sababli, shu jumladan uchinchi shaxslarning noto‘g‘ri harakatlari yoki umuman harakatsizligi tufayli Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarining bajarilmaganligi yoki nomuvofiq bajarilganligi uchun, agarda bu majburiyatlarni bajarishda zaruriy ehtiyotkorlik bilan harakat qilganini isbotlay olsa, javobgar bo‘lmaydi.

10. Bank xizmatlari uchun to‘lov tartibi

- 10.1 Hisobvaraqlarni ochish va yuritish bo‘yicha Deponentga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun Bank tasdiqlangan Tariflarga muvofiq haq undiriladi;
- 10.2 Ushbu Shartnomaga muvofiq Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat uchun komissiya to‘lovi Deponent tomonidan Eskrou Hisobvarag‘ini ochish uchun Ariza berish paytida bir martalik tartibda Bank Hisobvarag‘iga naqd yoki naqd pulsiz pul mablag‘larini kiritish orqali to‘lanadi.
- 10.3 Tariflar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va agar Bank va Deponent o‘rtasida yozma shaklda boshqacha kelishuv bo‘lmasa, Bank tomonidan bir tomonlama tartibda o‘zgartirilishi mumkin.
- 10.4 Bank Tariflari Deponent va Benefisiar e’tiboriga Bankning axborot stendlari va rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali yetkaziladi, shu jumladan Bankka murojaat qilinganda.

11. Boshqa shartlar

- 11.1 Bank tomonidan Deponent yoki Benefisiarga ushbu Shartnoma predmetiga kirmaydigan qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish alohida Shartnomalar bilan tartibga solinadi.
- 11.2 Hisobvaraq yopilganda Hisobvaraqdagi pul mablag‘lari qoldig‘i Deponentga beriladi yoki uning ko‘rsatmasiga binoan boshqa Hisobvaraqa yozma ariza olinganidan keyin 5 (besh) Bank kunidan kechiktirmay o‘tkaziladi, Bank oldida qarzdorlik mavjud bo‘lmagan taqdirda.
- 11.3 Bank Deponentga Hisobvaraq bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma’lumotlarni (xabarnomalarni) Deponent tomonidan Arizada ko‘rsatilgan telefon (mobil) raqamiga SMS-xabarlar orqali yuborish xizmatini taqdim etadi.
- 11.4 Deponent SMS-xabarlar orqali axborot uzatilishiga rozilik bildiradi, bunda bunday uzatish kanallari har doim ham xavfsiz emasligini anglaydi va ushbu kanallardan foydalanish natijasida maxfiylik buzilishi bilan bog‘liq barcha xavflarni o‘z zimmasiga oladi.
- 11.5 Bank Tariflariga yoki ushbu Shartnoma shartlariga o‘zgartirishlar/kiritmalar kiritilgan taqdirda, Bank Deponentni bunday o‘zgartirishlar/kiritmalar kuchga kirish sanasidan kamida 10 (o‘n) kalendar kun oldin quyidagi usullardan biri orqali xabardor qiladi:
- Bank ofislaridagi axborot stendlariga joylashtirish orqali;
 - Bankning www.kdb.uz manzilidagi veb-sahifasiga joylashtirish orqali;
 - “Internet Banking iDBA” ilovasida (“Yangiliklar” bo‘limida) yoki “KDBUz Mobile” mobil ilovasi orqali.
- 11.6 Agar Bank tomonidan yuborilgan xabarnomadan keyin 10 kalendar kun ichida Deponentdan e’tirozlar kelib tushmasa, Tariflar va ushbu Shartnomaga kiritilgan o‘zgartirishlar/kiritmalar

Deponent tomonidan qabul qilingan hisoblanadi. Deponent Tariflar va mazkur Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar bilan rozi bo'lmagan taqdirda, Deponent bunday o'zgartirishlar/qo'shimchalar kuchga kirishidan oldin yozma ariza asosida Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

- 11.7 Hisobvaraqa bo'yicha barcha bildirishnomalar masofaviy aloqa vositalari (shu jumladan SMS-xabarnoma, Internet Banking iDBA yoki KDBUz Mobile ilovalari) orqali yozma elektron shaklda o'zbek, rus yoki ingliz tillarida yuboriladi hamda yuborilgan kunda olingan deb hisoblanadi.
- 11.8 Deponentning boshqa shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha o'zaro da'volari Bank ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.
- 11.9 Mazkur Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tuzilgan va tartibga solinadi.
- 11.10 Hisobvaraqa yuritish va bank operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq Bankning barcha majburiyatlari va vazifalari faqat "KDB Bank O'zbekiston" AJ tomonidan qabul qilinadi.
- 11.11 Mazkur Shartnoma bo'yicha nizolar yozma da'volar taqdim etish yo'li bilan hal etiladi. Nizolar yuzaga kelgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun davomida kelishuvga erishishning imkoni bo'lmagan taqdirda, Tomonlardan har biri nizoni Bank joylashgan hududdagi vakolatli sud ko'rib chiqishi uchun taqdim etishga haqli.
- 11.12 Mazkur Shartnoma o'zbek, rus va ingliz tillarida tuzilgan. Bank barcha til versiyalarining aniqligi, autentikligi va o'zaro muvofiqligini ta'minlash uchun barcha oqilona choralarni ko'rgan. Turli tillardagi matnlar o'rtasida har qanday tafovutlar, ziddiyatlar yoki farqlar yuzaga kelgan taqdirda, mazkur Shartnomaning ingliz tilida tuzilgan matni ustuvor kuchga ega bo'ladi.

12. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish tartibi

- 12.1 Agar Eskrou Hisobvarag'ini ochish uchun Arizada va/yoki shartlarni o'zgartirish to'g'risidagi Arizada ko'rsatilgan summa ushbu Shartnomaning 8.2.1-bandida belgilangan muddat ichida Hisobvaraqa kelib tushmasa, Shartnoma Tomonlar kelishuviga binoan bekor qilingan hisoblanadi.
- 12.2 Ushbu Shartnomaning 7.1, 11.6, 8.4.4 va 12.1-bandlarga muvofiq bekor qilinishi Hisobvaraqa yopish uchun asos hisoblanadi.

13. Bankning yuridik manzili va rekvizitlari

"KDB Bank O'zbekiston" AJ

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buxoro ko'chasi, 3.

Bank rekvizitlari: h/r 19907000600000842001

MFO: 00842 STIR: 202167236, OKED: 64190, OKPO: 16518153

Tel. +99878 120-80-00

ESKROU HISOBVARAG'INI OCHISH ARIZASI

Mazkur bilan Deponent:

- Bankka O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida eskrou hisobvarag'ini ochish orqali "KDB Bank O'zbekiston" AJning Eskrou Hisobvarag'i Shartnomasi (Ommaviy oferta)da nazarda tutilgan shartlar va tartibda Eskrou Hisobvarag'i Shartnomasini tuzish to'g'risida ko'rsatma beradi;
- mazkur Arizada taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni to'g'ri va dolzarb ekanligini tasdiqlaydi;
- "KDB Bank O'zbekiston" AJning eskrou hisobvarag'i shartnomasi (Ommaviy oferta) shartlari va qoidalari bilan, shuningdek, Bankning www.kdb.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan (yoki qog'oz shaklida taqdim etilgan) Bank Tariflari bilan mazkur Arizani imzolash sanasidagi amaldagi tahririda diqqat bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi, ularni shartsiz va qaytib olinmaydigan tarzda qabul qiladi hamda ularga nisbatan hech qanday e'tirozga ega emas.

Benefitsiar ma'lumotlari

F.I.Sh. (yoki yuridik shaxs nomi), to'liq:		JShShIR (yoki STIR):		
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID karta, boshqa)				
Seriya:	Raqam:	Berilgan (kim tomonidan):	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:
Tug'ilgan joyi:		Tug'ilgan sana:	Fuqaroligi:	
Joylashish manzili:				
Benefitsiar hisobvarag'i (talab qilinguncha Depozit hisobvarag'i):				
(agar qollanilsa) Bank kartasiga mablag'larni o'tkazish uchun tranzit hisobvaraq:			Bank kartasi raqami:	
Bank:			MFO:	
Aloqa qilinadigan/ishonchli shaxsning F.I.Sh., to'liq (agar qo'llanilsa):			Aloqa qilinadigan shaxs telefon raqami:	

Deponent ma'lumotlari

F.I.Sh. (yoki yuridik shaxs nomi), to'liq:		JShShIR (yoki STIR):		
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID karta, boshqa)				
Seriya:	Raqam:	Berilgan (kim tomonidan):	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:
Tug'ilgan joyi:		Tug'ilgan sana:	Fuqaroligi:	
Doimiy ro'yxatdan o'tgan manzil				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	
Amaldagi yashash manzili/vaqtincha ro'yxat (agar qo'llanilsa)				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	
Aloqa telefon raqamlari:	+998 () xxxxxxx; +998 () xxxxxxx;			

Deponent vakilining ma'lumotlari

(ushbu bo'lim ariza Deponent vakili tomonidan ishonchnoma asosida imzolangan taqdirda to'ldiriladi)

Vakolat berilgan hujjat nomi va rekvizitlari				
Nomi:	Raqami:	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:	
F.I.Sh. to'liq:			JShShIR:	
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID karta, boshqa)				
Seriya:	Raqam:	Berilgan (kim tomonidan):	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:
Tug'ilgan joyi:		Tug'ilgan sana:	Fuqaroligi:	
Doimiy ro'yxatdan o'tgan manzil				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	
Amaldagi yashash manzili/vaqtincha ro'yxat (agar qo'llanilsa)				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	
Aloqa telefon raqamlari:	+998 () xxxxxxxx; +998 () xxxxxxxx;			

Bitim obyeki (kerakligini belgilang):

<input type="checkbox"/> Transport vositasi				
Marka/model	Texpasport raqami	VIN:	Davlat raqami:	Ishlab chiqarilgan yil:
<input type="checkbox"/> Ko'chmas mulk				
Turi (kvartira, uy, noturar joy va boshqalar)		Kadastr raqami:	Umumiy maydoni (m ²)	
Manzil (ko'chmas mulkning joylashuvi)				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	

Eskrou hisobvarag'iga mablag' kiritish usuli (keraklisini belgilang):

<input type="checkbox"/>	O'z hisobingizdan «KDB Bank O'zbekiston» AJ ga / Boshqa bankdagi hisobdan naqdsiz o'tkazma orqali
<input type="checkbox"/>	Bank kassasi orqali naqd pulda
<input type="checkbox"/>	Bank kartasi orqali
<input type="checkbox"/>	Boshqa qonuniy usul bilan

Depozit qilingan summa (summa va valyuta raqam va so'z bilan ko'rsatiladi)

Summa (raqam bilan):	Summa (so'z bilan):

Sana: _____

Deponent imzosi: _____

Bank belgilari (Bankning mas'ul xodimi tomonidan to'ldiriladi):

Ochilgan Eskrou hisobraqami:	Hisob ochilgan sana:	Eskrou ID berildi:
		ESC-
Xizmat uchun komissiya (Bankning tranzit hisobiga kiritilgan):		Bank xodimining imzosi va muhri:

SHARTLARNI O'ZGARTIRISH TO'G'RISIDA ARIZA

Mazkur bilan Deponent:

- Bankka eskrou hisobvara q shartnomasini (ID- _____) shartlariga quyida keltirilgan ma'lumotlarga muvofiq o'zgartirishlarni qabul qilishni topshiradi;
 - mazkur Arizada taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni to'g'ri va dolzarb ekanligini tasdiqlaydi;
- "KDB Bank O'zbekiston" AJning eskrou hisobvarag'i shartnomasi (Ommaviy oferta) shartlari va qoidalari bilan, shuningdek, Bankning www.kdb.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan (yoki qog'oz shaklida taqdim etilgan) Bank Tariflari bilan mazkur Arizani imzolash sanasidagi amaldagi tahririda diqqat bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi, ularni shartsiz va qaytib olinmaydigan tarzda qabul qiladi hamda ularga nisbatan hech qanday e'tirozga ega emas.

Benefitsiar ma'lumotlari

F.I.Sh. (yoki yuridik shaxs nomi), to'liq:			JShShIR (yoki STIR):	
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID karta, boshqa) agar qollanilsa)				
Seriya:	Raqam:	Berilgan (kim tomonidan):	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:
Tug'ilgan joyi:		Tug'ilgan sana:	Fuqaroligi:	
Joylashish manzili:				
Benefitsiar hisobvarag'i (talab qilinguncha Depozit hisobvarag'i):				
(agar qollanilsa) Bank kartasiga mablag'larni o'tkazish uchun tranzit hisobvara q:			Bank kartasi raqami:	
Bank:			MFO:	
Aloqa qilinadigan/ishonchli shaxsning F.I.Sh., to'liq (agar qo'llanilsa):			Aloqa qilinadigan shaxs telefon raqami:	

Deponent ma'lumotlari

F.I.Sh. (yoki yuridik shaxs nomi), to'liq:			JShShIR (yoki STIR):	
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID karta, boshqa)				
Seriya:	Raqam:	Berilgan (kim tomonidan):	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:
Tug'ilgan joyi:		Tug'ilgan sana:	Fuqaroligi:	
Doimiy ro'yxatdan o'tgan manzil				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	
Amaldagi yashash manzili/vaqtincha ro'yxat (agar qo'llanilsa)				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	
Aloqa telefon raqamlari:	+998 () xxxxxxxx; +998 () xxxxxxxx;			

Deponent vakilining ma'lumotlari

(ushbu bo'lim ariza Deponent vakili tomonidan ishonchnoma asosida imzolangan taqdirda to'ldiriladi)

Vakolat berilgan hujjat nomi va rekvizitlari				
Nomi:	Raqami:	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:	
F.I.Sh. to'liq:			JShShIR:	
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID karta, boshqa)				
Seriya:	Raqam:	Berilgan (kim tomonidan):	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:
Tug'ilgan joyi:		Tug'ilgan sana:	Fuqaroligi:	
Doimiy ro'yxatdan o'tgan manzil				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	
Amaldagi yashash manzili/vaqtincha ro'yxat (agar qo'llanilsa)				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	
Aloqa telefon raqamlari:	+998 () xxxxxxxx; +998 () xxxxxxxx;			

Bitim obykti (kerakligini belgilang):

<input type="checkbox"/> Transport vositasi				
Marka/model	Texpasport raqami	VIN:	Davlat raqami:	Ishlab chiqarilgan yil:
<input type="checkbox"/> Ko'chmas mulk				
Turi (kvartira, uy, noturar joy va boshqalar)		Kadastr raqami:	Umumiy maydoni (m ²)	
Manzil (ko'chmas mulkning joylashuvi)				
Mamlakat:		Viloyat:	Shahar (tuman/aholi punkti):	
Ko'cha:		Uy:	Xonadon(kvartira):	

Eskrou hisobvarag'iga mablag' kiritish usuli (keraklisini belgilang):

<input type="checkbox"/>	O'z hisobingizdan «KDB Bank O'zbekiston» AJ ga / Boshqa bankdagi hisobdan naqdsiz o'tkazma orqali
<input type="checkbox"/>	Bank kassasi orqali naqd pulda
<input type="checkbox"/>	Bank kartasi orqali
<input type="checkbox"/>	Boshqa qonuniy usul bilan

Depozit qilingan summa (summa va valyuta raqam va so'z bilan ko'rsatiladi)

Summa (raqam bilan):	Summa (so'z bilan):

Sana: _____

Deponent imzosi: _____

Bank belgilari (Bankning mas'ul xodimi tomonidan to'ldiriladi):

Ochilgan Eskrou hisobraqami:	Hisob ochilgan sana:	Eskrou ID berildi:
		ESC-
Xizmat uchun komissiya (Bankning tranzit hisobiga kiritilgan):		Bank xodimining imzosi va muhri:

ESKROU HISOBVARAG'I SHARTNOMASINI BEKOR QILISH TO'G'RISIDA ARIZA

Mazkur bilan Deponent:

- Bankka eskrou hisobvarag'i shartnomasini (ID- _____) bekor qilishni topshiradi;
- Hisobvarag'dagi mablag'larni quyidagi rekvizitlar bo'yicha o'tkazishni topshiradi;
- mazkur Arizada taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni to'g'ri va dolzarb ekanligini tasdiqlaydi;
- "KDB Bank O'zbekiston" AJning eskrou hisobvarag'i shartnomasi (Ommaviy oferta) shartlari va qoidalari bilan, shuningdek, Bankning www.kdb.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan (yoki qog'oz shaklida taqdim etilgan) Bank Tariflari bilan mazkur Arizani imzolash sanasidagi amaldagi tahririda diqqat bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi, ularni shartsiz va qaytib olinmaydigan tarzda qabul qiladi hamda ularga nisbatan hech qanday e'tirozga ega emas.

Deponentning / Deponent vakilining bank hisobvarag'i rekvizitlari:

F.I.Sh. (yoki yuridik shaxs nomi), to'liq:	JShShIR (yoki STIR):
Deponentning hisobvarag'i (talab qilinguncha Depozit):	
(agar qollanilsa) Bank kartasiga mablag'larni o'tkazish uchun tranzit hisobvaraq:	Bank kartasi raqami:
Bank:	MFO:

Deponent vakilining ma'lumotlari

(ushbu bo'lim ariza Deponent vakili tomonidan ishonchnoma asosida imzolangan taqdirda to'ldiriladi)

Vakolat berilgan hujjat nomi va rekvizitlari				
Nomi:	Raqami:	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:	
F.I.Sh. to'liq:		JShShIR:		
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID karta, boshqa)				
Seriya:	Raqam:	Berilgan (kim tomonidan):	Berilgan (sana):	Amal qilish muddati:
Tug'ilgan joyi:		Tug'ilgan sana:	Fuqaroligi:	
Aloqa telefon raqamlari:	+998 () xxxxxxx; +998 () xxxxxxx;			

Sana: _____

Deponent imzosi: _____

Bank belgilari (Bankning mas'ul xodimi tomonidan to'ldiriladi):

Bank xodimining imzosi va muhri:	_____
----------------------------------	-------